



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 16 - sentabr

VI-65-186-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

### **Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasining hisoboti haqida**

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Y.Xalimovning o'tgan vaqt davomida doimiy komissiya faoliyatiga doir hisobotini tinglab, bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Y.Xalimovning doimiy komissiya faoliyatiga doir hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasiga:

- xalq deputatlari tuman Kengashining qarori bilan tasdiqlangan doimiy komissiyalar to'g'risidagi Nizom talablari asosida ish tashkil etsin;

- doimiy komissiya hamda tuman Kengashi ish rejasida komissiya faoliyatiga doir belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlasin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati va "Angor yog'dusi" gazetasi (G.Jumayeva)ga xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishi nazorat qilishni xalq deputatlari Angor tuman Kengashi raisi o'rinbosari I.Baxromov zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**